# JONATAN SVIFTNING " GULLIVERNING SAYOHATLARI" ASARIDA RAMZLARI TALQINI.

*Termiz davlat universiteti talabalari*

***Jummayeva Nurshoda***

***Abdurayemova Nozima***

***Annotasiya****: Ushbu maqolada Jonatan Sviftning o‘z asari orqali jamiyatning undagi ongsiz insonlarning o‘zlarini aqlli va olim deb hisoblovchi partiya a’zolari va ularning tabaqaga bõlinishlari barcha barchasi bundan tashqari esa ba’zi insonlarning odam qiyofasidagi jirkin maxluq kimsalarni oshkor qilib ularning oldida otlar mehribon ekanligini insonda bo‘lishi kerak bo‘lgan his tuyg‘ularni otlarda aks ettiradi.*

***Kalit so‘zlar****: jarrohlik , dengiz , sayohat , liliputlar mamlakati ,laputa mamlakati, brobdinglar mamlakati ,guignmlar mamlakati*

"Gulliverning sayohatlari" asari Irlandiyalik yozuvchi Jonatan Svift tomonidan yozilgan eng taniqli nasriy satira hisoblanadi. Muallif asarini 1726- yil oktyabr oyida nashr ettiradi va o‘z muxlislari orasida tezda mashhurlikka erishadi va jahon adabiyotining klassikkasiga aylanadi.Yozuvchi asarini o‘z jamiyatigi urf odatlar, siyosiy uslublar, inson tabiatiga qarshi tanqidlarni qo‘shgan holda hamda "sayohat hikoyalari" masalalarini yoritib bular orqali hokimiyat tepasidagilar burjuaziyadagilar ustidan kuladi.Umuman olganda asardagi voqealar gõyoki yosh bolalarning õyinidek ular õzlari õylab topgan hikoya ertaklariga õxshaydi ammo asarning tag zamirida esa ishonib bo‘lmas haqiqatlar yotadi .Muallif bunda ham yumoristik usulda jamiyat ustidan kuladi hamda ularning haqiqatlarini ochib beradi.

Qahramon bu hikoyaning Lemuel Gulliver, ma'lum bir sabablarga ko'ra sayohatga borishga qaror qilgan shifokor. Safarlari davomida u ajoyib

sarguzashtlarni boshdan kechiradi va siz o'zingiznikidan mutlaqo farq qiladigan to'rtta o'ziga xos sivilizatsiya bilan uchrashadi.Òz davrida Angliyada mavjud bòlgan ijtimoiy muammolar,davrning òziga xos xususiyatlari asarda alohida chizgilar bilan namoyon bòladi hamda asarda ekzotik mamlakatlar aholisi haqida gapirilib, muallif odamlarning salbiy fazilatlarini masxara qilish bilan ochib beradi. Shu bilan birga maqolada òzbek mumtoz adabiyotimizning nodir namunasi bòlmish mavlono Muqimiyning "Sayohatnoma"sidagi ma'lum ğoyaviy va badiiy xususiyatlar ham ochib berilgan. Mazkur asarlar òz davri voqeligi hamda muhiti haqida bizga tòliq ma'lumot beradi.

Mazkur asarlar òz davri voqeligi hamda muhiti  haqida bizga tòliq ma'lumot beradi. Xalqlarningijtimoiy- falsafiy tafakkuri,madaniy-adabiy taraqqiyoti tarixida beqiyos rol òynagan uluğ siymolarning nomi va sha'ni bugungi kunga kelib õz qadr qimmatini topdi. Õz davrining yirik adibi qalami o‘tkir ingliz yozuvchilaridan biri Jonatan Svift ham asarlarida õz davrining siyosatini qalamga olib unda tanqidiy yondashuv asosida tahlil etgan  adabiyotga tegishli  namoyondalardan biridir.Jahon adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan Tomas Mor,Uilyam Shekspir,Charlz Dikkens,Uolter Skott, Genri Filding,Samuel Richardsonni singari minglab qalam sohiblari õzlarining badiiy kechinmalari,rangin tuyğulari hamda ijtimoiy hayotga munos- abatlarini badiiy ifodalashda òziga xos mahorat maktabi yaratganlar desak xato bõlmaydi.

Svift yaratgan qahramon Gulliver özi aslida shifokor bõlmoqchi bo‘lib 6 yil mobaynida shifokorlikni õrganadi va bu yil mobaynida u xatto uylanadi qarindoshlari uning õqishi uchun ham mablag‘ yordam qilishar edi. Uning birinchi qilgan sayohati Liliputlar mamlakatiga sayohat qiladi u yerda mitti odamlar dastlab uni boğlab tashlashadi biroq ular ajoyib mehmondo‘st ham edilar Gulliverni turli noz ne’matlari bilan siylaydi unga hatto boshpana ham berishadi unga kõrpa yostiq barini tayyorlab berishadi . U yerdagi insonlar bilan muloqot qiladi va õzaro til õrganadilar .

Ikkinchi sayohati esa brobdinglar mamlakati bo‘lib ulkan odamlar mamlakatida Gulliver judayam mitti bo‘lib õzini u ulkan bahaybat odamlardan

qutqarishga intilib bu sayohatida liliputlardan mutlaqo farq qiluvchi mamlakatga borib qoladi .

Laputadagi sayohatida esa u ilm fan bilan mashg'ul olimlarni uchratadi. U yerdagi odamlar ğayri oddiy olimlar bo'lib ular yaratmoqchi bo'lgan yangi kashfiyotlari aqlga sig'mas kashfiyotlar olami edi. Tuxumni qaysi tomonidan yorgan yaxshi poynak qismidanmi yo yuqori qismidan deb tortishishar edi biri bo'lsa bodringdan quyosh energiyasi olmoqchi bo'lsa yana biri uyni birinchi tom qismidan boshlamoqchi bo'ladi.Bular bari kitobxon õqiganda ham ham kulguli,ham ğayri oddiy fantaziyalar edi .

Guignmlar mamlakatida esa odamlar va jonli mavjudotlar yarmi ot yarmi odam qiyofasidagi kishilar bo'lib u yerdagi otlar judayam aqlli hamda mehribon bo'lib insonda bor his tuyg'ular otlarda mujassam edi insonlar esa shavqatsiz jirkin maxluq qiyofada mehr oqibat neligini bilmas kimsalar tasvirlangan

Sarguzashtlar syujeti "Gulliverningsayohatlari"da tengsiz bõlib qoldi va bu asar mutolasiga tushgan har bir kitobxonni asarqahramonining sarguzashtlarini diqqat bilan kuzatishga hamda muallifning asa- rdankõzlaganmaqsadini teran anglashga undaydi. Bu borada muallifning ğayratli tasavvuriga qoyil qolishkerak.Yozuvchi õz romanini yozishda turli motivlar hamda tasvirlardan foyda- langan. Xalqertaklaridan gigantlar va mittilar, ahmoqlar va yolğonchilar,shuningdek, õsha paytdaAngliyada keng tarq- algan memuar sarguzashtli adabiyot - haqiqiy va hayoliy sargu- zashtlarnimunosib tarzda õz asari bilan boğlay olgan.Bula- rning barchasi Sviftning adabiy ijodini shuqadar qiziqarli va õ quvchan qildiki,satirik falsafiy roman,õychan hamda jiddiy roman,aynipaytda bolalar uchun kulgili va eng sevimli, keng tarqalgan asarlar safidan joy oldi.

Tadqiqotchlar asar kompozitsion mohiya- tinini turli usulda tadqiq qilibkõrdilar. A.Anikstning sõzla- riga kõra "Gulliverning sayohatlari" chuqur õylangan kompozitsiyaga ega bõlib,u kontrast tamoyiliga asoslangan: biri- nchi qismda mittilar, ikkinchi qismda gigantlar, shuningdek, oliy ma'lumotli odamlar hamda ibtidoiy mavjudotlar kabi". Jonatan Sviftning nasriy va sayohat adabiyotlari

va ishonchli tavsiflari õrtasidagi farqni tahlil qilib, V.Muravyov:" Gulliv- erning sayohatlari" har qanday adabiyot mavjud bõlganga qadar eski ertakning bu jozibasini saqlaydi. Ertakda falsafiy yoki utopik risoladan farqli õlaroq,Gulliverning qarindoshlik bor,chunki bu birinchi navbat daqahram- onning baxtsiz hodisalari haqida hikoya,lekin bosh qahram- onning qiziqarli ta'limoti emas; Bu mintaqaviy geografik tav- sif emas,lekin bu yerda ikkinchisining barcha ilmiy yutuqlari yaqqol kõrinib turibdi"

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda asar bir vaqtning õzida turli xil shakllarni õz ichiga oladi: satira,fantaziya,utopiya,distopiyahatto siyosiy risola."Gull-iverning sayohatlari" Jonatan Sviftni butun dunyoga mashhur qildi va dunyoga noyob qahramon berdi. Jahon klassikasi durdonasi bo’lgan ushbu asardasarguzasht va safar talqini bizda va kelgusi avlodda qiziqishini ortirishda davom etadigan motiv sifatida qarasak bo’ladi. Ishimizni eng qiziqarli jihati shu- ndaki bua sarda hali biz nazar solmagan so’zlar va tahlil qili- nmagan jihatlari anchagina. Biroq asar judayam õqilishli kitobxonni zeriktirmaydigan õziga xos tasvirlarga boy ma’naviy estetik zavq beruvchi yumoristik asardir

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1Alekseev P. V. Rus sharq sayohatnomasi 18-asr oxiri - 19-asrning birinchi uchdan birqismi sayohat nasri janri sifa- tida // Fi-lologiya va inson. 2014. No
2. B. 33–46. URL: http://www.asu.ru/files/documents/00011141.pdf (kirish san- asi:07/01/2018)
3. Bondareva A. Sarguzashtlar adabiyoti // oktyabr . 2012. № 7.URL:http://magazines.russ.ru/october/2012/7/bo18.html (sanakirish:06/01/2018)
. 4. Jilicheva G. A. I. Ilf va E. Petrovning "bir qavatli Amer- ikada" sayohat nutqi //18-20-asrlardagi rus sayohatnomasi. kov: monografiya. Novosibirsk: Novosibirsk. davlat ped. un-t, 2015, 563–579-betlar. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id= 23948324 (kirish sanasi:07/07/2018) .
5. Kapustyanskaya K. V., Kubanev N. A., Nabilkina L. N. Imagologiya vasayohatnoma:"xorijiy" mamlakatlar va xalqlar qiyofasini shakllantirish // Ta'lim falsafasi. 2015. No 6. S.218– 223. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=25447737 (kirish san- asi: 07/07/2018) .